

“Beshinchi tog” asarida Sharq falsafasi

Umurova Nigina Raximovna

Buxoro davlat universiteti

Paulo Koeloning magik realizm yo‘nalishida yozgan yana bir asari “Beshinchi tog” romanidir. Ushbu roman payg‘ambar Ilyos a.s haqida yozilgan bo‘lib, u kishining nabiylik faoliyatlari, hayotlari tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Albatta, asardagi barcha fikrlarni haqiqatga yaqin deya olmaymiz. Ma‘lum bir asar yaratilishida badiiy to‘qima, ijodkor konsepsiyasining bo‘lishi tabiiy holat. Ammo asosiy motiv va g‘oyalar Islom ta‘limotiga ancha yaqin. Romandagi voqealar Islom va tasavvufning asosiy manbasi bo‘lmish Qur‘oni Karim va boshqa manbalar bilan solishtirilganda, muallifning Sharq ilmini va diniy bilimlarni chuqur bilganligiga guvoh bo‘lamiz. Asar qiziqarli sujetga ega, ammo romanda Ilyos a.s nabiy sifatida gavalansa-da, muallif obrazni oddiy insonlardek tasvirlaydi. Asarda anbiyolar qissasida keltirilmagan ma‘lumotlar ham mavjud bo‘lib, muallif badiiy to‘qimasiga oid desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki romanda shunday fikrlar keltiriladiki, bu Islom aqidalariga mutlaqo zid. Asardagi iqtiboslar Injildan keltirilganligiga guvoh bo‘lish bilan birga, Islomiy ma‘lumotlarni, tasavvufiy tushunchalarni ham uchratamiz. Biz asardagi aynan mana shu nuqtalarini tahlilga tortamiz va Sharq manbalari bilan qiyoslaymiz. Asar tarjimasi Ozod Sharafiddinovga mansub. Ushbu roman leytmotivini Xudoga chin dildan ibodat qilish, insoniyatga yaxshilik qilish, sinovlarga sabr qilish, vafo-sadoqat, Vatanga muhabbat kabi umumbashariy g‘oyalar tashkil etadi. Asarda Ilyos a.s dan tashqari Ya‘qub a.s, Is‘hoq a.s, Iso a.s haqida ham fikrlar keltiriladi. “Beshinchi tog” romanida keltirilgan badiiy lavhalar tarixiy faktlar bilan muvofiq ravishda tasvirlanadi. Ammo muallif o‘zi yashagan jamiyat konsepsiyasi, o‘zi o‘rgangan bilimlar- ya‘ni xristian dini aqidalari va G‘arb an‘ana va adabiy tamoyillaridan chetga chiqmagan. Chunki asarda keltirilgan ayrim fikrlar, xususan, payg‘ambarlar va Xudo haqidagi jumlar Islomga xos emas. Ammo P. Koelo tarixiylik, ilohiy haqiqatlar bilan birga badiiy to‘qimadan ham foydalanganki, bu roman xuddi nabiy nomadek emas, balki Ilyos g‘ayritabiiy kuchga va ilmga ega bo‘lgan obraz sifatida namoyon bo‘lgan romandir. Asar yo‘nalishi ham magik realizm ekanligini unutmagan holda aytamizki, qahramonlar hayotida sodir bo‘lgan voqealar ilohiylik kasb etgan.

Asarda voqealarning haqiqatga to‘g‘ri kelishi, qay darajada Islomiy aqidalarga mos kelishi, qaysi jihatlari tasavvufga oid ekanligini quyidagi misollar orqali aniqlaymiz. Avvalo ta‘kidlash joizki, Ilyos alayhissalomning payg‘ambar ekanliklari haqida Qur‘oni Karimning An‘om, Soffat surasida qayd etiladi. Ya‘ni An‘om surasining 85-oyati karimasida Oллоh Taolo marhamat qiladi: ”Zakariyo, Yahyo, va Ilyosni ham hidoyat qildik. Barchalari solih bandalardandir.”

Soffat surasining 123-oyati karimasida Oллоh Taolo marhamat qiladi: “Ilyos ham shak-shubhasiz payg‘ambarlardandir.” 127-oyatda ”Bas (qavmi Ilyosni) yolg‘onchi qildilar. Endi albatta ular do‘zax azobiga hozir qilinguvchidirlar.” 129-oyatda: ”Biz keyingi avlodlar orasida Ilyos haqida go‘zal maqtovlar-olqishlar qoldirdik.” 130-oyatda Ilyosga salom bo‘lgay.”¹

¹Qur‘oni Karim. Alouddin Mansur tarjimasi. www.ziyouz.com kutubxonasi

Darhaqiqat, Ollohning elchilari nabiy va rasullar insoniyatni haq yo'lga boshlashga, Ollohni tanitmoqqa yuboriladilar. Bu yo'lda, albatta, ularga oson bo'lmas, o'z qavmi tomonidan ming baloga giriftor etilgan nabiyilar ko'p tarixda. Ular Ollohning g'azabiga uchragani nafaqat ilohiy manbalarda, balki tarixiy manbalarda ham qayd etilgan. Xususan, Lut a.s qavmi ostiga yog'dirilgan tosh bo'ronlari, Nuh to'foni va insoniyat halokati, Muso a.s davridagi qurg'oqchilik, Yusuf a.s davridagi qahatchilik va bizning tahlil etilajak manbamizda aks etgan Ilyos a.s davridagi suvsizlik va urush-talofatlar fikrimizga yaqqol misoldir. Endi bevosita asarda keltirilgan Ilyos payg'ambar bilan bog'liq voqealar tahliliga o'tamiz. Tarixan ma'lum, aksar nabiyilar yahudiylar yurti, Isroildan chiqqan. Ilyos a.s ham Isroil nabiyilaridan edi. O'z qavmini haq yo'lga boshlash uchun yuborilgan edi. Asarda: "Men Xudoning xizmatini qilardim. Men Xudoning so'zlarini yetkazuvchiman",-deya nabiyiligini izhor etadi. Ammo uning so'zlariga ishonishmaydi. Uning qavmi Baal degan butga sig'inardi. Isroil podshosi Axav malika Iezavelga uylangach, u o'z dinini targ'ib etdi. Va o'z ma'budiga sig'inishni amr etdi. Axav azbaroyi sevgisi kuchliligidan ayol makriga bardosh berolmadi va o'zi ham adashganlardan bo'lib qoldi. Ilyos tushi va o'ngida farishtani ko'rar edi. Bu albatta, vahiy yetkazuvchi farishta edi. Aynan bu lavhalar payg'ambarlar haqida haqiqatlar bayon etilgan "Qisasi Rabg'uziy"da aks etgan faktlarga muvofiq kelur. Qissada aytiladi: "Aymishlar, bani Isroiloda bir malik bor edi, oti Ajab ibn Amr edi. Shom viloyatida Ba'labakka sharistonda bu Ajabning Armala bint Aflotun otlig' xotuni bor erdi. Ajab unga muftalo bo'lmish erdi. Podshohlikni xotiniga bergan edi. Bu Armala butg'a topinur erdi. Ul butning oti Ba'l erdi. Bu Armala uch yuz yetmish payg'ambari o'lturdi".² So'nggi jumlagi e'tibor qiladigan bo'lsak, Armala uch yuz yetmish nabiyini o'ldirdi deyilmoqda, "Beshinchi tog'" romanida ham bu haqiqat badiiy gavdalantirilgan. Asarda Ilyosning nabiyiligi ma'lumligi, malika uni qidirayotganligi va o'ldirishga buyurilgani, boshqa nabiyilarni o'ldirayotganligi xususida badiiy lavhalar mavjud. "Askarlar har bir uyni titkilab chiqib, payg'ambarlarni o'z dinlariga kiritishga majburlar, yo'q deyishsa, ularni o'ldirar edi",-deb qayd etiladi asarda.³

Asar voqealari bilan manbalarni solishtirsak, muallifning Islom dini va boshqa ta'limotlardan, boshqa dinlar va tarixdan xabardorligini bilish mumkin. Romanda giquyidagi jumlar aynan "Qisasi Rabg'uziy"da ham qayd etilgan. "Xudoning farishtasi menga podshoh Axavning huzuriga borib, Baalga sig'inishda davom etar ekanlar, Isroilda yomg'ir bo'lmasligini aytib, ogohlantirishni buyurgan edi",-deyiladi

romanda. Qissada esa voqealar quyidagicha bayon etiladi: "Ular bulutg'a aytdilar. Yog'mag'il. Sekiz yil yog'in yog'madi." Sababi ular butga sig'inishda davom etayotgan edilar.

Shuningdek, Ilyos Allohning buyurganini ado etish uchun malika oldiga borib, vahiyini yetkazadi. Ammo malikaning qoni qaynab uni o'ldirishga buyuradi. Asarda Ilyos obrazi xuddi insonlardek tasvirlanadi. Chunki uning o'y-kechinmalari, iztiroblari, unda kechgan xayollar Islomda tasvirlanadigan nabiyilarning ilohiy kuch-qudrati va Ollohga bo'lgan kuchli iymoni, tavakkal qilishi kabi xususiyatlarga zid.

Asarda jaholatga botgan qavm, Axav podshoh va uning malikasi haqidagi haqiqatlar badiiy ifodalangan. Malika Iezavel qisasi Rabg'uziyda Armala nomi bilan keltiriladi. Payg'ambarlar haqida to'plangan rivoyatlardan iborat "Saodatga eltuvchi bilim" kitobida: "Ilyos a.s haqida Tavrot va tarix kitoblarida ancha-muncha rivoyatlar bor." "Ilyos so'zi Allohning kuch-qudrati

² Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. Иккинчикитоб.-Тошкент: "Ўзувчи", 1992.

³ Коэльо П. Бешинчи тог // Жаҳон адабиёти.-Т., 2004-йил.-3-4-сон.

degan ma'noni bildiradi. O'sha davrda Bani Isroilga poytaxti Samara shahrida bo'lgan Ajib (Axav) va uning xotini Arbil (Izavel) hukmronlik qilar edi. Allohning amriga ko'ra, Ilyos a.s ularni hidoyatg achorlab, but-sanamlarga topinmasdan, Muso a.s shiati bo'yicha yashab, yakka-yu yagona Allohga itoat etib, La ilaha illallahu, Ilyasa rasulullohi deyishni va iymon keltirishlarini targ'ib qildi. Bir necha mo'jizalar ko'rsatdi. Ammo ular bu da'vatni qabul qilmadilar, payg'ambarlarni o'ldirish payiga tushdilar. Shunda Ilyos podshoh Axavdan qochib, Iordan daryosi yaqinidagi bir g'orda yashay boshlaydi. Tangri taolo amri bilan qarg'alar kelib non va go'sht yetkazib turdilar. Ilyos a.s g'orda ancha yil yashadi. Podshoh odamlari uni o'ldirish uchun muttasil qidirib yurdilar", - degan ma'lumotlar yuqorida aytib o'tilgan manbada aks etgan.

Asarda shunday fikrlar keltirilganki, muallif bunda o'zi aytmoqchi bo'lgan haqiqatlarni mujassam etgan bu fikrlarda. Masalan, Ilyos aytadi: "Hayot matosi bizning fikrlarimizdan to'qiladi." Bu so'zlar zamirida olamcha ma'no bor, boisi ushbu jumlar "Alkimyogar"da ham keltirilgan bo'lib, inson o'z taqdirining yaratuvchisidir degan fikrlarga aynan hamohanglik kasb etgan. Hayotimizni o'zimiz boshqaramiz, yaxshilik ham, yomonlik ham bizning fikrlarimiz va fikrlarimiz tasdiqlaydigan amallarimiz mahsulidir degan g'oyani ilgari suradi. Albatta, Taqdir Lavhul Mahfuzda bitilgan, ammo Olloh bizni yaratib, tanlovni o'zimizga havola etdi. Taqdirni esa Olloh o'z ilmi azaliysi ila bandalarning xohishini oldindan bilgan holda bitdi. Inson o'z taqdirini yaratishda hayotning sinovligini bilishi kerak, asarda inson hayot bilan muttasil kurashishi haqidagi ayrim fikrlar keltiriladi. "Har birodamning boshiga baxtsizlik tushishi mumkin, shahari yakson bo'ladi, o'g'li vafot etadi, beayb aybdor bo'lib qoladi, bedavo dardga uchraydi. Bunday paytda Xudo odamni sinovdan o'tkazadi. Ey, odamzod, sen nima uchun buncha hayotga yopishib olgansan, axir umr qisqa va azob-uqubatlarga to'la-ku? Sening kurashingda qanday ma'no bor? "⁴- degan fikrlar insonni nafi bilan kurashga chorlaydi. Dunyo yig'ishni sevgan, havoyi nafsga berilgan kimsalar faqat o'zlarini halok etadilar. Ilyos asarda juda oddiy yashagan, duradgorlik bilan shug'ullanib, halol kun kechiruvchi inson sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari Ilyos Akbar shahri vayron bo'lgach, ko'pgina taomlarni bechoralarga, bolalar va ayollarga taqsimlab beradi. Saxovat- eng olijanob insonlarga xos xususiyatdir. Inson qachon komillikka erishadi? O'z havoyi nafsini yenggan, Olloh buyruqlariga rioya etgan holda yashagan ezgu ishlarda bardavom bo'lganlarga baxtli hayotga erishadilar. Asarni mutolaa qilish jarayonida ushbu haqiqatlar sharqona ruhda yoritilganining guvohi bo'lasiz.

Paulo Koelo "Beshinchi tog'" romanida Ilyos payg'ambar obrazi va u bilan bog'liq manzaralarni tasvirlash orqali butun insoniyatni ezgulikka chorlash maqsadini birinchi o'ringa qo'yadi. Kamolotga erishish yo'lida har bir inson bu sinovli dunyo musibatlariga sabr qilishi, halol mehnat bilan umr kechirishi, yaxshilik qilishi, pokiza axloq egasi bo'lishi lozimligi asar konsepsiyasini tashkil etadi. Muallif bu ezgu niyatlarni asarga jo etar ekan, Sharq rivoyatlari, sharq motivlari, manbalari, tasavvuf ta'limotiga bevosita tayanadi. Aynan asarning sharqona ruh bilan sug'orilgani romanga o'zgacha ma'no bag'ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Коэльо П. Алхимёгар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.
2. Коэльо П. Иблис ва Прим хоним. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
3. Коэльо П. Бешинчи тог //Жаҳон адабиёти.-Т., 2004-йил.-3-4-сон.

⁴Коэльо П. Бешинчи тог //Жаҳон адабиёти.-Т., 2004-йил.-3-4-сон.

Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences

ОКТОBER 15

<https://ejmr.org/conferences/index.php/eimrc>

4. Калила ва Димна. Т.,2017.
5. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий.Биринчи китоб.-Тошкент: “Ёзувчи”, 1991.-124 б.
6. Носируддин Бурхонуддин Рабғузий. Қиссаси Рабғузий. Иккинчи китоб.-Тошкент: “Ёзувчи”, 1992.
7. Qur'oni Karim. Alouddin Mansur tarjiması. www.ziyouz.com kutubxonasi